

**AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH****Bobojonova Farangiz Ixtiyorjon qizi ¹**¹ farangizikromova990@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 29.03.2025

Revised: 30.03.2025

Accepted: 31.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

Aqli zaif o'quvchilar,
yozma nutq, maxsus
pedagogika, nutq
rivojlanishi, innovatsion
texnologiyalar.

*Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilarning yozma
nutqini rivojlantirish texnologiyalarini
takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.
Ularning individual psixologik xususiyatlari hamda
yozma nutqni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan
omillar o'rganilgan. Shuningdek, maxsus ta'lim
sharoitida samarali metod va yondashuvlar taklif
etilgan.*

KIRISH. Nutq inson tafakkurining shakllanishida va uning atrof-muhit bilan muloqotida muhim rol o'ynaydi. Aqli zaif o'quvchilarda nutqiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ularning yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirish maxsus pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Zamonaviy maxsus ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Yozma nutq – bu murakkab kognitiv jarayon bo'lib, u bir necha funksional tizimlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatiga tayanadi. Ushbu jarayon ko'rish, eshitish, kinestetik sezgilar, psixologik-motorik faollik hamda tafakkur jarayonlarining birgalikda ishlashini talab qiladi. Yozma nutqni shakllantirish jarayonida bola avvalo tovushlarni farqlash, fonematik eshitish, artikulyatsiya, lug'at boyligini kengaytirish, grammatik strukturalarni o'zlashtirish va mantiqiy fikrlash kabi bir qator muhim ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shu bois, bu jarayon har bir bola uchun individual yondashuvni talab qiladi, ayniqsa, aqli zaif bolalarda bu ko'nikmalarning shakllanishi sekinroq kechadi va qo'shimcha yordamni talab qiladi.

Aqli zaif bolalarda nutqning rivojlanishi umumiy va individual xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat psixologik-pedagogik va neyropsixologik tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ushbu bolalarda fonetik-fonematik rivojlanish, grammatika va so'z boyligining yetishmovchiligi, fikrni aniq ifodalash qiyinligi kabi muammolar kuzatiladi. Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish jarayonida turli qiyinchiliklar uchraydi. Bunday muammolar orasida grafik ko'nikmalarning sust rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Bu esa o'quvchilarning harflarni noto'g'ri shakllantirishi, ularni buzib yozishi va harflar o'rtasidagi bog'lanishlarni yetarli darajada tushunmasligi bilan ifodalanadi. Natijada yozuvda chiziqlar notekis bo'lib, harflar o'lchamining mutanosibligi buziladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun grafomotor mashqlarga alohida e'tibor qaratish, chiziqli daftar va maxsus yozish uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, orfografik xatolar ham aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqida keng uchraydigan muammolardan biridir. Bu, asosan, tovush va harf mos kelmasligi, so'zlarning bo'g'inlarga noto'g'ri ajratilishi hamda harflarni tushirib qoldirish yoki ortiqcha harflar qo'shib yozish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'quvchilarga orfografik lug'atlar bilan ishlash, diktant mashqlarini bajarish, tovush-harf tahlili o'tkazish va so'zlarni bo'g'inlab yozish kabi metodlarni qo'llash muhimdir.

Bundan tashqari, matn tuzishdagi qiyinchiliklar ham yozma nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif o'quvchilar ko'pincha gaplarni to'g'ri bog'lay olmaydilar, fikrni ifodalashda juda qisqa va sodda jummalardan foydalanadilar. Ba'zan esa matn tarkibiy tuzilmasini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu muammoni bartaraf etish uchun o'quvchilarga matn bo'yicha savollarga javob yozish, hikoya davom ettirish, tayyor matn tarkibini to'ldirish va qisqa jummalarni birlashtirib uzunroq gaplar hosil qilish kabi metodik usullar tavsiya etiladi. Diqqat va xotira sustligi ham aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda katta to'siq bo'lib, matnlarni eslab qolish va ularni qayta ifodalashda qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilar o'qigan yoki eshitgan matnni butunligicha eslab qololmay, faqat ayrim qismlarini qayta hikoya qilishlari mumkin. Ushbu muammoni kamaytirish uchun takrorlash asosida o'qitish, assotsiativ metodlardan foydalanish, vizual materiallar orqali eslab qolish jarayonini yengillashtirish va matn bo'yicha qisqa yozma topshiriqlar bajarish kabi usullar samarali bo'lishi mumkin. [8,b.89-93].

Aqli zaif bolalarda yozma nutqning rivojlanishi bilan bog'liq ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maxsus pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim platformalari, interfaol metodlar va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar orqali o'quvchilarning

indivdualligi hisobga olinib, ularning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim strategiyalari ishlab chiqilishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Aqli zaif bolalarda yozma nutqni rivojlantirish uchun ularning nutqiy eshitish qobiliyatini mustahkamlash, talaffuz jarayonlarini to'g'rilash va ularga maxsus logopedik mashqlarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, so'z boyligini kengaytirish, gap tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish, yozma nutq uchun zarur bo'lgan asosiy grammatik qoidalarni o'rgatish ham dolzarb vazifalardan biridir. [2,b.152].

Bularning barchasi bolalarda mustaqil fikrlash va o'z fikrini aniq, tushunarli ifodalash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda didaktik o'yinlar, vizual materiallar, grafik sxemalar, multimediali texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari va maxsus logopedik metodikalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, bolalarning yozma nutqini rivojlantirishda individual yondashuv ham muhim bo'lib, har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlari inobatga olinishi lozim. Yozma nutqning shakllanishi aqli zaif bolalarda faqat maktab sharoitida emas, balki oilada ham qo'llab-quvvatlanishi kerak. Shu sababli ota-onalar bilan hamkorlikda maxsus dasturlar ishlab chiqish va bolalarga uy sharoitida ham yozma nutqni rivojlantirishga oid topshiriqlar berish samarali natijalarni ta'minlaydi. Aqli zaif bolalarning yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, individual rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, maxsus texnologiyalardan foydalanish, vizual va kinestetik metodlarni qo'llash, shuningdek, qo'shimcha psixologik-pedagogik yondashuvlarni joriy etish ushbu bolalarning o'quv jarayoniga yanada samarali moslashishlariga yordam beradi. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimida turli innovatsion metodlar, jumladan, differensial yondashuv, interfaol texnologiyalar, vizual materiallardan foydalanish va multisensor ta'lim usullaridan foydalanish orqali aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini samarali rivojlantirish mumkin. Differensial yondashuv o'quvchilarning indivdualligini inobatga olib, ularga mos bo'lgan metod va vositalarni tanlashni talab qiladi. Bu esa har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirish hamda kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarga asoslangan texnologiyalar ishlab chiqilgan:

- Differensial yondashuv – har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish.
- Vizualizatsiyaga asoslangan metodlar – rasmi hikoyalar, jadvallar va sxemalar yordamida nutqni rivojlantirish.

- O'yinli texnologiyalar – didaktik o'yinlar va rolli mashg'ulotlar orqali yozma nutqni shakllantirish.

- Multimediali ta'lim vositalari – interaktiv ta'lim platformalari va audio-vizual materiallardan foydalanish.

Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun samarali metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda, avvalo, grafomotor mashqlarga e'tibor qaratish lozim. Ushbu mashqlar harflarni yozish, ularni to'g'ri bog'lash va chiziqlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning yozuv qobiliyatini rivojlantirib, harflarni bir-biriga ulanib yozish jarayonini osonlashtiradi. Grafomotor mashqlarga turli geometrik shakllarni chizish, punktir chiziqlar bo'ylab yozish, harflarni havoda tasvirlash kabi texnikalar kiradi. Shuningdek, so'z va gap qurish bo'yicha mashqlar ham juda samarali hisoblanadi. Ushbu mashqlar o'quvchilarga oddiy jumlar tuzish orqali o'z fikrini yozma shaklda ifodalashni o'rgatadi. Masalan, rasm asosida hikoya tuzish, so'zlarni berilgan tartibda joylashtirish, mavzuga oid gaplar tuzish kabi usullar yordamida o'quvchilarning yozma nutqi rivojlantiriladi. Jumlarning mantiqiy bog'lanishini tushunish, fikrni aniq va tushunarli ifodalash hamda yozma nutqning tarkibiy tuzilishini o'zlashtirish bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Interfaol ta'lim usullari esa o'quvchilarni faol jalb qilish va yozma nutqni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Multimedia vositalaridan foydalanish, jumladan, maxsus interfaol o'yinlar, ta'limiy dasturlar, vizual materiallar va audiovizual resurslar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish bilan birga, ularning savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. [6,b.210].

Bunda, ayniqsa, animatsion hikoyalar yaratish, interfaol doskalar orqali yozma mashqlar bajarish, o'yin shaklidagi topshiriqlardan foydalanish kabi usullar samarali natijalar beradi. Matn bilan ishlash metodikasi esa yozma nutqni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Oddiy hikoyalar, ertaklar va qiziqarli matnlarni o'qish, tushunish va ularni qayta hikoyalash orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mantiqiy bog'lab ifodalashga o'rganadilar. Ushbu usul o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, matndagi asosiy fikrni ajratish va uni yozma shaklda ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, matn asosida savollarga yozma javob berish, hikoyani davom ettirish va matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilish kabi mashqlar ham o'quvchilarning yozma nutqini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan metodlar o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va ularni ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu yondashuvlarning kompleks qo'llanilishi aqli zaif bolalarning nafaqat yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularning o'z fikrini mustaqil ifodalash va o'qish jarayoniga faol jalb bo'lishlarini ham ta'minlaydi. Interfaol metodlar orqali esa o'quvchilarning o'rganish jarayoniga faol jalb etilishi ta'minlanadi. Masalan, multimediya texnologiyalaridan foydalangan holda maxsus dasturlar yordamida harflar va so'zlarning yozilishi, gaplar tuzilishi interaktiv tarzda o'rgatilishi mumkin. Bu esa bolalarning qiziqishini oshiradi va ularning yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, vizual materiallar va multisensor yondashuvlar yordamida o'quvchilarning nafaqat eshitish va ko'rish, balki harakat orqali ham o'rganishiga imkon yaratish mumkin. Masalan, harflarni plastilindan yasash, maxsus kartochkalar yordamida so'zlarni shakllantirish, matnni tasvirlar bilan bog'lash kabilar o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, aqli zaif o'quvchilar bilan ishlashda bosqichma-bosqich o'qitish texnologiyasini qo'llash ham juda samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiya dastlab harflarni tanib olish va yozishdan boshlanib, keyinchalik so'zlar, gaplar va matnlar yaratishga qadar bosqichma-bosqich murakkablik darajasi oshirib boriladi. Bu jarayonda individual yondashuv asosida har bir o'quvchining imkoniyatlariga mos ta'lim metodlari tanlanadi. Natijada, aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maxsus ta'lim tizimida bunday ilg'or yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarning o'rganish jarayonini yengillashtirib, ularning mustaqil fikrlashi va o'z fikrini yozma ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu boisdan, kelajakda maxsus ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish maxsus ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki yozma nutq – bu nafaqat o'z fikrini ifodalash vositasi, balki o'quvchilarning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va ijtimoiy moslashuv darajasini shakllantiruvchi muhim omildir. Aqli zaif bolalar ko'pincha harflarni to'g'ri yozish, so'zlarni bog'lash, gap tuzish va matn yaratish kabi jarayonlarda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va individual yondashuvlardan foydalanish zarur.

Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon maxsus pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bunday o'quvchilarda

yoza nutqning rivojlanishi grafik ko'nikmalar, orfografiya, matn tuzish va diqqat sustligi bilan bog'liq muammolar sababli qiyinchilik tug'diradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun differensial yondashuv, interfaol metodlar, vizual materiallardan foydalanish va bosqichma-bosqich o'qitish texnologiyalari samarali yechim sifatida tavsiya etiladi. Maxsus ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularning ijtimoiy moslashuvini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol ta'lim usullari, multimedia texnologiyalari va multisensor yondashuvlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning o'quv jarayoniga faol jalb qilinishini ta'minlash mumkin. Shuningdek, har bir o'quvchining individualligini inobatga olgan holda maxsus metodikalar ishlab chiqish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish va bunday o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadigan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar maxsus ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Aqli zaif o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon individual yondashuv, maxsus metodlar va zamonaviy texnologiyalarni talab etadi. Yozma nutqning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar – psixologik, pedagogik va lingvistik qiyinchiliklarni tizimli ravishda bartaraf etish orqali o'quvchilarning muloqotga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida o'yinli metodlardan, vizual materiallardan hamda texnologik vositalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedova, S. (2021). Special education methodologies for students with intellectual disabilities. *Journal of Pedagogical Innovations*, 3(2), 45-57.
2. Ismoilov, B. (2018). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: Ma'naviyat, 152-bet.
3. Karimova, N. (2020). Development of speech skills in children with special needs. *Educational Psychology Review*, 5(1), 89-102.
4. Mamedov, K., & Shoumarov, G. (2019). Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 67-bet.
5. Mukhammadiev, R. (2019). Psychological approaches to speech therapy for children with disabilities. *Journal of Special Education Research*, 7(4), 112-130.

- =====
6. Safarova, G. (2021). Maxsus ta'lim innovatsiyalari. Toshkent: Innovatsiya, 210-bet.
 7. Smith, J., & Brown, L. (2018). Teaching literacy to students with intellectual disabilities: Strategies and challenges. *International Journal of Special Education*, 12(3), 210-225.
 8. Qodirova, D. (2019). Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 89-93-bet.
 9. Qodiraliyev, A. (2022). The role of inclusive education in the development of students with disabilities. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(11), 519-525.

